

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18221989>

O‘ZBEK MEDIATILINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA NUTQ MADANIYATIGA TA’SIRI

Sotvoldiyeva Ismigul Xasanboy qizi
O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi magistri
Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek mediatili (TV, radio, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlar)ning lingvistik xususiyatlari hamda uning nutq madaniyatiga ta’siri tahlil qilindi. Mediamatnlarning leksik, grammatik-sintaktik, orfografik-punktuation va uslubiy-pragmatik qatlamlari ajratilib, me’yoriylik va ta’sirchanlik o‘rtasidagi muvozanat masalasi yoritiladi. Natijalar mediatilning adabiy me’yorlarni ommalashtirishi bilan birga, tezkorlik va tarjima bosimi sabab me’yor buzilishlarini ham kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Yakunda tahrir siyosati, media style guide va lingvistik monitoring bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: media tili; nutq madaniyati; adabiy me’yor; mediadiskurs; klikbeyt; kalkalash; stilistika; pragmatika; orfografiya; orfoepiya; tahrir siyosati.

KIRISH

So‘nggi o‘n yillikda raqamli kommunikatsiya kanallarining keskin kengayishi natijasida “media tili” ijtimoiy nutqning eng faol va ta’sirchan qatlamiga aylandi. Ommaviy axborot vositalari (OAV) va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaladigan axborotlar nafaqat yangilik yetkazadi, balki auditoriya uchun nutqiy namuna, uslubiy model va baholash mezonlarini ham shakllantiradi⁹⁷.

Nutq madaniyati nazariyasida adabiy til me’yorlari nutqning to‘g‘riligi va barqarorligini ta’minlovchi asosiy tayanch deb qaralsa, media diskurs sharoitida ushbu me’yorlar doimiy bosim ostida bo‘ladi: tezkorlik, sarlavha raqobati, post formatining ixchamligi, tarjima oqimi, klip-tasavvur va algoritmik tavsiya tizimlari nutqning me’yoriyligini qayta-qayta sinovdan o‘tkazadi⁹⁸.

Mediada til tanlovi, odatda, ikki asosiy funksiyani uyg‘unlashtiradi. 1. Axborot berish. 2. Ta’sir o‘tkazish. Ta’sir funksiyasi kuchaygan sari baholovchi leksika, ekspressiv birliklar, sarlavhada dramatizatsiya, kutilmaganlik effekti va “klikbeyt” konstruktsiyalari ko‘payadi. Xolis axborot mezoni, aniqlik hamda etik me’yorlar bilan muayyan ziddiyatlarni yuzaga keltiradi⁹⁹.

O‘zbek media makonida (TV/radio, internet nashrlar, Telegram-kanallar, Instagram va YouTube kontenti) tilning leksik qatlamida o‘zlashmalar (asosan inglizcha va ruscha)ning ko‘payishi, grammatik-sintaktik qurilishda tarjima-kalka

⁹⁷ Bell, A. The Language of News Media. Oxford: Blackwell, 1991.

⁹⁸ Fairclough, N. Discourse and Social Change. Cambridge: Polity Press, 1992.

⁹⁹ van Dijk, T. A. Discourse and Power. London: Palgrave Macmillan, 2008.

izlari, imlo va tinish belgilarida beparvolik hamda ogʻzaki efir nutqida orfoepik meʼyorlarning notekisligi tez-tez kuzatiladi. Ushbu holatlar nutq madaniyati mezonlariga bevosita taʼsir qilib, ommaviy nutqda "aralash norma"ning shakllanishiga olib kelishi mumkin¹⁰⁰.

ADABIYOTLAR SHARHI

Soʻnggi yillarda mediatil va nutq madaniyati oʻrtasidagi munosabatni oʻrganish tilshunoslikning dolzarb yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, media tili nafaqat axborot uzatuvchi kanal, balki jamiyatda nutqiy did, uslubiy andoza va meʼyoriy tasavvurlarni shakllantiruvchi ijtimoiy-lingvistik mexanizm sifatida ham faol ishlaydi. Mazkur maqola uchun tanlangan adabiyotlar uch asosiy yoʻnalishni qamrab oladi: 1). Media tili va yangilik diskursi. 2). Diskurs/pragmatika va taʼsir strategiyalari. 3). Oʻzbek tilida nutq madaniyati hamda normativ manbalar (imlo, lugʻat, orfoepiya).

Media tili va yangilik diskursi boʻyicha yondashuvlar. Media tili tadqiqotida A.Bellning "The Language of News Media" asari fundamental manba sifatida qaraladi. Unda yangilik matni tilining janr xususiyatlari, auditoriya omili va "yangilik"ni til orqali konstruksiyalash mexanizmlari yoritiladi. Bell yondashuvi mediamatnni oddiy axborot emas, balki ijtimoiy maʼno ishlab chiqaruvchi diskurs sifatida tahlil qilish zarurligini asoslaydi. Bunday qarash oʻzbek mediamatnlaridagi sarlavha, lid va qisqa formatlarning taʼsirchanlik bilan meʼyoriylik oʻrtasida turishini izohlashda metodologik tayanch boʻlib xizmat qiladi¹⁰¹. R. Fowlerning "Language in the News" asari esa pressa tilidagi ideologik va baholovchi birliklar, "kutilmaganlik" va "dramatizatsiya" kabi pragmatik effektlarning matnga singdirilish usullarini tahlil qiladi¹⁰². Mazkur yondashuv oʻzbek mediatilida klikbeyt sarlavhalar, baholovchi leksika (shok, portladi va b.) hamda "tayyor xulosa" beruvchi iboralarning (hamma kutgan xabar, yana bir bor isbotlandi...) nutq madaniyatiga taʼsirini muhokama qilishda dolzarbdir.

Diskurs tahlili, pragmatika va taʼsir mexanizmlari. Mediadiskursni tahlil qilishda N. Fairclough hamda T. A. van Dijk ishlari keng qoʻllanadi. Faircloughning "Discourse and Social Change" asari diskursni ijtimoiy amaliyot sifatida koʻrib, til birliklari orqali ijtimoiy munosabatlar, baholash va hukmni shakllantirish mexanizmlarini ochib beradi. Bunday yondashuv mediatilda "axborot berish" va "taʼsir oʻtkazish" funksiyalari qanday uygʻunlashishini tahlil qilishga imkon yaratadi.

Van Dijkning "Discourse and Power" asari esa diskurs, hokimiyat va auditoriyani boshqarish oʻrtasidagi bogʻliqlikni koʻrsatadi; matn tuzilishi va semantik tanlovlar orqali "eʼtibor", "ishonch", "agenda" singari omillarni boshqarish mexanizmlarini tahlil qiladi.³ Mazkur konsepsiya oʻzbek mediatilida presuppozitsiya va baholash orqali auditoriyaga "tayyor ramka" berish holatlarini izohlashda qoʻl keladi.

¹⁰⁰ Fowler, R. Language in the News: Discourse and Ideology in the Press. London/New York: Routledge, 1991.

¹⁰¹ Bell, A. The Language of News Media. Oxford: Blackwell, 1991

¹⁰² Fowler, R. Language in the News: Discourse and Ideology in the Press. London/New York: Routledge, 1991.

Shuningdek, tarjima oqimi kuchli bo'lgan mavzularda (xalqaro yangiliklar, texnologiya, sport) "kalkalash" va tarjima sintaksisi izlari tez-tez uchrashi amaliyotda ko'p kuzatiladi. Jarayonni tushuntirishda M.Bakerning tarjima nazariyasiga oid ishlari metodik asos vazifasini bajaradi. Til birliklarining bevosita ko'chirilishi, ekvivalentlik muammosi va matn tabiatining o'zgarishi kabi masalalar aynan media tezkorligi sharoitida kuchayadi.

O'zbek tilida nutq madaniyati va normativ manbalarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, o'zbek tilida nutq madaniyati muammolari bo'yicha R. Qo'ng'irov, E. Begmatov, Y. Tojiyev hamda T. Qudratov asarlari nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, uslubiy mosligi va etik me'yorlarini belgilashda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi¹⁰³. Ayniqsa, media nutqda "ta'sirchanlik" talabining kuchayishi fonida uslubiy o'rinlilik va etik mezonlarning saqlanishi masalasi nutq madaniyati nazariyasidagi klassik mezonlar bilan qayta baholanishi zarurligini ko'rsatadi.

Normativ asos sifatida "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" (VM qarori, 1995-yil 24-avgust, 339-son) hamda zamonaviy imlo lug'atlari va izohli lug'atlar muhim manba hisoblanadi¹⁰⁴. Imlo qoidalari mediamatndagi imloviy va punktuatsion og'ishlarni baholashda "me'yoriy mezon" rolini bajaradi, imlo lug'ati esa variantlilik (yozishdagi ikkilanishlar) masalasida aniqlik kiritadi. Shuningdek, "O'zbek tilining izohli lug'ati" leksik me'yor, so'z ma'nosi va semantik moslikni tekshirishda asosiy tayanch manbalardan biridir.

Ko'rib chiqilgan adabiyotlar mediatilni diskurs sifatida talqin qilish, ta'sir strategiyalarini pragmatik tahlil qilish hamda nutq madaniyati mezonlarini normativ asosda belgilashga imkon beradi. Shu bilan birga, o'zbek mediamakonida (internet nashrlar + ijtimoiy tarmoq + og'zaki efir) materiallari asosida me'yor buzilishlari tipologiyasi (orfografik, sintaktik, uslubiy, orfoepik), klikbeyt va baholovchi birliklarning nutq madaniyatiga ta'siri, tarjima, kalkalashning sintaktik va uslubiy oqibatlarini kabi masalalarni integrallashgan (kompleks) yondashuvda yoritish ehtiyoji mavjudir.

Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni qisman to'ldirishga xizmat qilib, o'zbek mediatilining leksik, grammatik-sintaktik, orfografik-punktuatsion hamda uslubiy-pragmatik qatlamlarini bir butun tizim sifatida ko'rib chiqadi va me'yoriylik-ta'sirchanlik muvozanatini amaliy tavsiyalar (tahrir siyosati, style guide, monitoring) orqali mustahkamlash yo'llarini asoslaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot dizayni sifat va miqdoriy yondashuv elementlarini uyg'unlashtirgan pilot monitoring modeliga asoslandi. Bunda mediamatnlar turli platformalardan tanlab olinib, lingvistik birliklar kodlash jadvali orqali belgilandi.

Material va tanlanma. Empirik material sifatida uch turdagi manbalar tanlangan.

¹⁰³ Qo'ng'irov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1992.

¹⁰⁴ Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1993.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"

1. Internet nashrlaridagi sarlavha va qisqa yangilik matnlari. 2. Telegram/Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlardagi axboriy, reklama va shaxsiy-blog postlari. 3. TV/radiodagi boshlovchi nutqi, intervyu va reportaj bo'laklari. Janr xilma-xilligi mediatilning turli kommunikativ vazifalarini qamrab olishga yordam berdi.

Kodlash sxemasi va o'lchov birliklari. Tahlil birligi sifatida sarlavha, lid (kirish jumla), asosiy xabar matni, post matni va og'zaki nutq segmenti (15–30 soniya) olindi. Har bir birlik quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha belgilandi: (a) leksik o'zlashma va neologizm ulushi; (b) baholovchi/ekspressiv birliklar mavjudligi; (c) grammatik-sintaktik soddalashuv belgilari; (d) orfografik-punktuatsion xatolar; (e) pragmatik strategiya (xolis axborot/ta'sir/chaqiriq/reklama).

Tahlil usullari. Tadqiqotda kontent-tahlil, stilistik tahlil, normativ tahlil, pragmatik tahlil va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Kontent-tahlil sarlavhalardagi klikbeyt markerlar, baholovchi birliklar va o'zlashmalar chastotasini qayd etishda, Stilistik tahlil janrga moslik, ekspressivlik va etik mezonlar bo'yicha baholashda, Normativ tahlil imlo, punktuatsiya va grammatik me'yorlarga muvofiqlikni tekshirishda Pragmatik tahlil adresat modeli, implikatura/presuppozitsiya va ta'sir strategiyalarini aniqlashda, Qiyosiy tahlil og'zaki va yozma mediatil farqlarini solishtirishda qo'llanildi.

Nutq madaniyati mezonlari sifatida to'g'rilik (imlo, grammatika, orfoepiya), aniqlik, mantiqiylik, uslubiy muvofiqlik, etik me'yor va me'yoriy ta'sirchanlik (ekspressivlikning o'rinaligi) qabul qilindi¹⁰⁵.

TAHLIL VA NATIJALAR

Natijalar mediatilning to'rtta leksik, grammatik-sintaktik, orfografik-punktuatsion, uslubiy-pragmatik asosiy qatlami bo'yicha umumlashtirildi. Qo'shimcha ravishda og'zaki efir nutqining orfoepik xususiyatlari ham ajratib ko'rsatildi. Leksik qatlam, o'zlashmalar, neologizmlar, sleng va semantik siljishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, Media leksikasi eng tez o'zgaradigan qatlam bo'lib, bunda texnologik yangiliklar, global axborot oqimi va marketing-kommunikatsiya tilining ta'siri kuchli seziladi. O'zlashmalar (trend, kontent, blogger, target, post, storis), abbreviaturalar (SMM, PR, KPI) va yangi yasalmalarning ko'payishi kuzatildi¹⁰⁶. Ushbu birliklarning ijobiy tomoni – yangi tushunchalarni tez va ixcham nomlash imkoniyatini berishi, salbiy tomoni esa – o'zbek tilidagi muqobil vositalarning chetlab o'tilishi, auditoriyada aralash kod odatining kuchayishi va ayrim holatlarda ma'no ravshanligining pasayishidir. Ayniqsa, qisqartmalar izohlanmasdan berilganda matnning "aniqlik" mezoni zaiflashadi.

Sleng va so'zlashuv bo'yoqi ijtimoiy tarmoq kontentida "yaqinlik" va "samimiylik" effektini kuchaytiradi, lekin axboriy janrlarda bu birliklarning me'yoridan ortiq qo'llanishi uslubiy nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi. Shuningdek, "sensatsion" baholovchi birliklar (shok, portladi, dahshat, hammani hayratga soldi)ning tez-tez qo'llanishi semantik dramatizatsiyani kuchaytirib, xabar mazmunini

¹⁰⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jild. 1–5-jildlar. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

¹⁰⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jild. 1–5-jildlar. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

baholovchi “tayyor ramka”da taqdim etadi¹⁰⁷.

Tendensiya	Namoyon bo‘lishi	Ijobiy jihat	Nutq madaniyatiga xavf
O‘zlashmalar	trend, kontent, format	tez nomlash	aralash norma, muqobilning siqilishi
Qisqartmalar	SMM, PR, KPI	ixchamlik	aniqlik pasayishi, izoh talab qiladi
Sleng/jargon	so‘zlashuv bo‘yoqi	yaqinlik effekti	uslubiy nomuvofiqlik
Baholovchi leksika	shok, portladi	e’tibor jalb etadi	manipulyativlik, etik risk

Grammatik-sintaktik qatlam soddalashuv, kalkalash va shablonlashuv. Yozma mediatilda sintaktik soddalashuv tendensiyasi kuzatildi: qisqa xabar va postlarda murakkab gaplar ulushi kamayib, sodda gaplar, qisqa bo‘lakli konstruktsiyalar, punktuatsion “tejamkorlik” kuchayadi. Bunday holat tez o‘qish va tez qabul qilishga mos, ammo mantiqiy bog‘lanishlarni (sabab-oqibat, shart, izoh) ifodalashda noaniqlik keltirib chiqarishi mumkin.

Tarjima oqimi kuchli bo‘lgan mavzularda (texnologiya, sport, xalqaro yangiliklar) kalkalash izlari ko‘proq sezildi. Masalan, so‘z tartibining begona modelga yaqinlashuvi, o‘zbekcha bog‘lovchi vositalarning cheklanishi, rasmiy-neytral matnda so‘zlashuv “qolipi”ning paydo bo‘lishi kabi holatlar qayd etildi.¹¹

Shablonlashuv (ma’lum qilinishicha, qayd etilishicha, ta’kidlanishicha) axboriy janrlar uchun me’yoriy bo‘lsa-da, ortiqcha takrorlanganda matnning ifodaliligi pasayadi va kommunikativ samaradorlik stereotiplashuvga yuz tutadi.

Orfografik va punktuatsion me’yorlar tipik xatolar. Media tezkorligi va platformalarning texnik xususiyatlari (mobil klaviatura, avtomatik tuzatish, kontentni tez joylash) imlo va tinish belgilariga bevosita ta’sir qiladi. Pilot kuzatuvda qo‘shib/ajratib yozishdagi adashish, defis va tire farqining buzilishi, bosh harf me’yoring beqarorligi, qo‘shirnoq va iqtibos belgilari notekisligi, vergulning tushib qolishi kabi xatolar ko‘proq uchrashi aniqlangan.

Xato turi	Tipik ko‘rinish	Ehtimoliy sabab	Ta’sir (nutq madaniyati)
Imlo (qo‘shib/ajratib)	me’yoriy variantdan og‘ish	tezkorlik, tahrir yo‘qligi	to‘g‘rilik pasayadi
Tinish belgisi	vergul/tire xatosi	shoshilish, savod darajasi	aniqlik va mantiqiylik buziladi
Bosh harf	asossiz kapitalizatsiya	vizual effekt, shablon	uslubiy nomuvofiqlik
Iqtibos	qo‘shirnoq notekisligi	texnik standart yo‘qligi	manba va ma’no noaniqlashadi

Orfografik-punktuatsion xatolar nutq madaniyatining “to‘g‘rilik” mezoniga eng bevosita zarba beradi: matnning ishonchiligi pasayadi, o‘quvchi diqqatini mazmundan shaklga buradi va OAVning professional obro‘siga salbiy ta’sir qiladi.

Uslubiy-pragmatik qatlam: klikbeyt, baholash va manipulyativ konstruktsiyalar.

¹⁰⁷ Klikbeyt va baholovchi leksika masalasi: Fowler (1991) hamda ommaviy axborot tili bo‘yicha tadqiqotlar.

Sarlavha – mediamatnning “kirish darvozasi” bo‘lib, uning pragmatik vazifasi o‘quvchini matnga jalb qilishdir. Shu sababli sarlavhada qisqalikka intilish, emotsional ta’sirni kuchaytirish va kutilmaganlik effektini berish kabi strategiyalar ko‘p uchraydi. Biroq, klikbeyt sarlavhalar (mazmunni to‘liq ochmasdan qiziqtirish, haddan ziyod dramatizatsiya) axboriy janrlar uchun xolislik va aniqlik mezonlarini zaiflashtirishi mumkin¹⁰⁸. Baholovchi birliklar va presuppozitsiya orqali auditoriyaga “tayyor xulosa” berish holatlari ham kuzatildi. Masalan, “hamma kutgan xabar”, “yana bir bor isbotlandi”, “mutlaqo kutilmagan qaror” kabi iboralar xabarni oldindan baholangan ramkada taqdim etadi. Bu esa muhokama maydonini toraytirib, auditoriyaning mustaqil xulosa chiqarishiga to‘siq bo‘lishi mumkin.

Og‘zaki mediatil orfoepiya, urg‘u, diksiya va efir madaniyati. TV va radio nutqi og‘zaki me‘yorlarning ommaviy namunasidir. Boshlovchi va intervyu ishtirokchilari nutqida talaffuz, urg‘u, intonatsiya va diksiya auditoriya tomonidan tez esda qoladigan model bo‘lib, u taqlid mexanizmi orqali kundalik nutqqa ko‘chishi mumkin. Shu bois og‘zaki mediatilda orfoepik me‘yorlarga amal qilish nutq madaniyatini saqlashning muhim sharti hisoblanadi. Pilot kuzatuv og‘zaki efiorda xatolar ko‘pincha jonli formatning tabiiy oqibatlari ekanini ko‘rsatadi: shoshilish, kutilmagan savol, psixologik bosim va texnik sharoitlar (shovqin, kechikish) nutq ravonligiga ta’sir etadi. Bunday vaziyatlarda professional tayyorgarlik (matn bilan ishlash, diksiya mashqlari, urg‘u va talaffuz bo‘yicha trening) xatolarni sezilarli kamaytirishi mumkin.

Natijalar o‘zbek mediatili nutq madaniyatiga ikki qirrali ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Bir tomondan u adabiy me‘yorlarni ommalashtiruvchi va kommunikatsiyani standartlashtiruvchi vosita, ikkinchi tomondan tezkorlik, algoritmik raqobat va ta’sir strategiyalari tufayli me‘yor buzilishlarini ko‘paytiruvchi omildir.

Ijobiy ta’sir: ommalashtirish va standartlashuv. Agar tahrir siyosati kuchli bo‘lsa, media adabiy til me‘yorlarini ommalashtiradi: to‘g‘ri talaffuz, ravon nutq, aniq va mantiqli bayon jamiyatda nutqiy didni oshiradi. Shuningdek, mediatil terminologik yangilanishni tezlashtirib, yangi ijtimoiy va texnologik tushunchalarni jamiyatga singdiradi.

Salbiy ta’sir: “aralash norma” va me‘yorlar eroziyasi. Boshqa tomondan, imlo-punktuatsion xatolar, kalkalash, ortiqcha o‘zlashmalar va klikbeyt pragmatikasi nutq madaniyati mezonlarini zaiflashtiradi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda aralash yozuv (translit, ruscha/inglizcha elementlar) va slengning ommalashuvi rasmiy yozishmalar hamda ta’limiy matnlarga ko‘chish xavfini kuchaytiradi.

Me‘yoriylashtirish strategiyasi, tahrir siyosati + style guide + monitoring.

Mediada nutq madaniyatini oshirish uchun uchlik model samarali deb hisoblanadi.

Tahrir siyosati va mas’uliyatli muharrirlik, redaksiya uchun “media style guide” (imlo, termin, sarlavha, etik me‘yor), muntazam lingvistik monitoring va tahlil.

Blok	Mazmuni	Kutiladigan natija
Imlo va punktuatsiya	chek-list, tez-tez xatolar ro‘yxati	to‘g‘rilik va ishonchlik oshadi

¹⁰⁸ Klikbeyt va baholovchi leksika masalasi: Fowler (1991) hamda ommaviy axborot tili bo‘yicha tadqiqotlar.

Termin va o'zlashmalar	muqobil variantlar ro'yxati, izoh talabi	aniqlik va milliy uslub saqlanadi
Sarlavha standarti	klikbeyt cheklovi, xolislik mezoni	axborot sifati va etik me'yor mustahkamlanadi
Og'zaki efir	orfoepik trening, diksiya mashqlari	talaffuz va urg'u me'yoriylashadi
SMM kontent	yagona yozuv standartlari, qisqa matn qoidalari	aralash kod kamayadi

XULOSA

Mazkur maqolada o'zbek ommaviy axborot vositalari tilining zamonaviy holati, uning lingvistik xususiyatlari hamda nutq madaniyatiga ko'rsatadigan ta'siri kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida mediatilning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy tendensiyalar aniqlanib, ularning til me'yorlari va nutq madaniyatiga bo'lgan bevosita ta'siri ochib berildi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, ommaviy axborot vositalari tilida lug'aviy tarkibning faol yangilanib borishi, sintaktik konstruksiyalarning soddalashuvi, imlo va punktuatsiya me'yorlarida barqarorlikning yetishmasligi hamda auditoriyaga yo'naltirilgan pragmatik ta'sir strategiyalarining kuchayishi nutq madaniyatining umumiy holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, tezkorlik va e'tiborni jalb qilishga qaratilgan media uslubi ayrim hollarda til me'yorlarining chekinishiga va nutq sifati pasayishiga olib kelayotgani aniqlanadi.

Media nutqini me'yorlashtirish va uning madaniy darajasini oshirish masalasi bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bu jarayonda tahririyat siyosatining izchil va qat'iy bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Til me'yorlariga asoslangan uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish hamda doimiy monitoring mexanizmlarini yo'lga qo'yish media tilini barqarorlashtirishning eng samarali yo'llaridan biri sifatida baholanadi. Bunday yondashuv ommaviy axborot vositalarida til va nutq madaniyatiga mas'uliyat bilan qarashni shakllantiradi hamda jurnalistik faoliyatda sifat standartlarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, media mahsulotlarida imlo va punktuatsiya masalalariga tizimli e'tibor qaratish, sarlavhalarni shakllantirishda aniqlik va xolislik tamoyillariga amal qilish nutq madaniyatini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi. Sensatsionlikka intilish natijasida paydo bo'ladigan baholovchi va subyektiv birliklarning haddan tashqari ko'payishi axborotning ishonchliligiga putur yetkazishi mumkinligi tadqiqot davomida asoslab berildi. Shu bilan birga, o'zlashma so'zlar va terminlardan foydalanishda muqobil variantlarni tanlash, ularning ma'nosini aniqlashtirish va auditoriya uchun tushunarli tarzda izohlash tilning me'yoriy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda televideniye va radio orqali tarqatiladigan og'zaki media nutqiga ham alohida e'tibor qaratildi. Nutqdagi urg'u, talaffuz va diksiya bilan bog'liq kamchiliklar keng auditoriyaga tez tarqalishi sababli ularning salbiy ta'siri kuchliroq bo'lishi qayd etildi. Shu bois, boshlovchilar va jurnalistlarning orfoepik savodxonligini

oshirish, ularni professional nutq madaniyati asosida tayyorlash zarurati ilmiy jihatdan asoslandi. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan media kontentda ham yagona yozuv me'yorlariga rioya etish masalasi muhim ahamiyat kasb etib, transliteratsiya va aralash koddan foydalanishning ko'payishi tilning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlandi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqot o'zbek mediatilining nutq madaniyatiga ta'siri ko'p qirrali va murakkab jarayon ekanini ko'rsatdi. Media tilini me'yorlashtirish faqat texnik yoki tahririy masala bo'lib qolmay, balki jamiyatda tilga bo'lgan munosabatni, madaniy saviyani va kommunikativ mas'uliyatni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, media tilini rivojlantirishga qaratilgan tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvlar nutq madaniyatini yuksaltirishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 2011.
2. Bell, A. The Language of News Media. Oxford: Blackwell, 1991.
3. Fairclough, N. Discourse and Social Change. Cambridge: Polity Press, 1992.
4. Fowler, R. Language in the News: Discourse and Ideology in the Press. London/New York: Routledge, 1991.
5. Qo'ng'irov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
6. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1993.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" (lex.uz).
8. Madvaliyev A., Begmatov E. (tuzuvchilar). O'zbek tilining imlo lug'ati. Muharrir: N. Mahmudov. Toshkent: Akademnashr, 2013.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jild. 1–5-jildlar. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
10. van Dijk, T. A. Discourse and Power. London: Palgrave Macmillan, 2008.